MARKAZIY OSIYODA MADANIY XILMA-XILLIK VA SIYOSIY PLYURALIZMNING TARIXIY-G‘OYAVIY ASOSLARI

Sharof Agabayev
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Siyosiy fanlar kafedrasi dotsenti, siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
E-mail.: sharofagabaev@gmail.com

Annotatsiya. Tezisda Markaziy Osiyoda madaniy xilma-xillikning tarixiy shakllanishi va siyosiy plyuralizm bilan g‘oyaviy aloqadorligi tahlil qilinadi. Ipak yo‘li merosi, mahalliy va xorijiy olimlarning qarashlari asosida madaniy ko‘plik, intellektual muloqot va siyosiy-institutsional plyuralizm o‘rtasidagi farqlar yoritiladi. Tarixiy tajribani zamonaviy siyosiy nazariya bilan qiyoslash imkoniyatlari hamda ilmiy talqin chegaralari aniq belgilab beriladi.

Kalit so‘zlar: Markaziy Osiyo, madaniy xilma-xillik, siyosiy plyuralizm, Ipak yo‘li, etnomadaniy jarayonlar, intellektual muloqot, siyosiy madaniyat.

Аннотация. В тезисах анализируются историческое формирование культурного многообразия Центральной Азии и его идейная взаимосвязь с политическим плюрализмом. На основе наследия Шёлкового пути, трудов отечественных и зарубежных учёных раскрываются различия между культурным многообразием, интеллектуальным диалогом и политико-институциональным плюрализмом. Определяются возможности сопоставления исторического опыта с современной политической теорией и научные пределы подобных интерпретаций.

Ключевые слова: Центральная Азия, культурное многообразие, политический плюрализм, Шёлковый путь, этнокультурные процессы, интеллектуальный диалог, политическая культура.

Abstract. This paper examines the historical formation of cultural diversity in Central Asia and its conceptual relationship with political pluralism. Drawing on Silk Roads heritage and domestic and international scholarship, it distinguishes cultural diversity, intellectual dialogue, and institutional political pluralism. It also identifies the possibilities and scholarly limits of interpreting historical experience through contemporary political theory.

Keywords: Central Asia, cultural diversity, political pluralism, Silk Roads, ethnocultural processes, intellectual dialogue, political culture.

DOI: 10.5281/zenodo.24240447

Markaziy Osiyo tarixiy-madaniy makonining shakllanishi o‘troq dehqonchilik vohalari, ko‘chmanchi jamoalar, turli etnik guruhlar va transregional savdo tarmoqlarining ko‘p asrlik o‘zaro aloqalari bilan chambarchas bog‘liq. Ushbu tarixiy jarayonlar mintaqada tillar, diniy-falsafiy qarashlar, ijtimoiy qadriyatlar va madaniy an’analarning o‘zaro ta’sirlashuvi uchun sharoit yaratgan. Madaniyatlararo munosabatlar bilimlar almashinuvi, dunyoqarashlar xilma-xilligi va intellektual muloqotning rivojlanishiga imkon bergan. Biroq mazkur jarayonlarning siyosiy xususiyatlari har bir tarixiy davrga xos hokimiyat munosabatlari, ijtimoiy tabaqalanish va boshqaruv tartiblari bilan bog‘liq bo‘lgan. Shu sababli madaniy xilma-xillikning tarixiy mavjudligini siyosiy tenglik yoki institutsional plyuralizmning shakllanganligi bilan bevosita aynanlashtirish ilmiy jihatdan asosli emas.

Markaziy Osiyo madaniy merosining siyosiy-falsafiy ahamiyati turli dunyoqarashlar va ijtimoiy manfaatlarning tarixiy shakllanishi, o‘zaro munosabati hamda ularning siyosiy tafakkurga aloqador jihatlarini aniqlashda namoyon bo‘ladi. Madaniy xilma-xillik jamiyatning etnik, diniy va ijtimoiy tarkibidagi farqlarni ifodalasa, siyosiy plyuralizm ushbu farqlardan kelib chiqadigan manfaat va pozitsiyalarning huquqiy tan olinishi, erkin ifodalanishi hamda siyosiy jarayonlarda ishtirok etish imkoniyatlari bilan tavsiflanadi. R.Dalning siyosiy bahslashuv va ishtirok qamroviga oid nazariy yondashuvi [1, 2–3-b.] mazkur hodisalarni farqlash uchun muhim konseptual mezon bo‘lib xizmat qiladi. Bu nuqtayi nazardan, mintaqada tarixan shakllangan madaniyatlararo muloqot va fikriy xilma-xillik an’analarini zamonaviy siyosiy plyuralizmning ayrim intellektual-kommunikativ tamoyillari bilan qiyoslash mumkin. Bunday qiyosda tarixiy tajribaning o‘ziga xos xususiyatlari va siyosiy institutlarning shakllanish shartlari alohida hisobga olinadi.

Shu jihatdan, Markaziy Osiyo tarixiy-madaniy merosini siyosiy g‘oyalar tarixi nuqtayi nazaridan yoritishda madaniy xilma-xillik, intellektual muloqot va siyosiy-institutsional plyuralizm o‘rtasidagi g‘oyaviy aloqadorlik hamda konseptual farqlarni aniqlashtirish muhimdir. Tarixiy-kontekstual, manbashunoslik va qiyosiy-siyosiy yondashuvlar madaniy aloqalarning tarixiy mazmunini, muqobil qarashlarning ifodalanish xususiyatlarini hamda ularning hokimiyat va boshqaruv munosabatlari bilan bog‘liqligini tahlil qilish imkonini beradi. Bunda tarixiy manbalar va zamonaviy siyosiy nazariya o‘rtasidagi qiyoslash dalillarning mazmuni va qo‘llanish chegaralariga asoslanadi. Mazkur yondashuv Markaziy Osiyo intellektual merosining siyosiy tafakkur tarixidagi o‘rnini aniqlashtirish va uning zamonaviy siyosiy plyuralizm tamoyillari bilan nazariy aloqadorligini tarixiy xolislik asosida yoritishga imkon beradi.

Markaziy Osiyoda madaniy xilma-xillikning tarixiy shakllanishi mintaqaning geosiyosiy joylashuvi, transregional savdo aloqalari va turli ijtimoiy-madaniy jamoalarning o‘zaro munosabatlari bilan uzviy bog‘liq. Buyuk Ipak yo‘li nafaqat iqtisodiy almashinuv, balki diniy tasavvurlar, ilmiy bilimlar, texnologiyalar va madaniy qadriyatlarning tarqalishiga xizmat qilgan tarixiy kommunikatsiya tizimi sifatida muhim ahamiyat kasb etgan. Jumladan, UNESCOning Changan–Tyanshan yo‘lagi haqidagi materiallari mazkur hududda savdo va madaniyatlararo aloqalarning tarixiy ko‘lamini yoritadi [2]. 2023-yilda Jahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan Zarafshon–Qoraqum yo‘lagining 34 tarkibiy obyekti esa qadimiy manzilgohlar, karvonsaroylar, mudofaa inshootlari va diniy yodgorliklar orqali mintaqaning iqtisodiy, madaniy hamda ijtimoiy munosabatlarini aks ettiradi [3]. Ushbu tarixiy meros siyosiy jihatdan savdo yo‘llarini nazorat qilish, hududiy boshqaruv, iqtisodiy resurslardan foydalanish va turli jamoalar o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga solish masalalari bilan bog‘liq holda baholanishi mumkin. Biroq madaniy aloqalarning rivojlanganligi yoki diniy-madaniy yodgorliklarning xilma-xilligi o‘sha davrlarda siyosiy huquqlar tengligi yoxud barcha ijtimoiy guruhlarning boshqaruvda bir xil ishtirok etganini tasdiqlovchi dalil hisoblanmaydi.

Mahalliy tarixshunoslikda akademik A.Asqarovning etnogenez va etnik tarixga oid ilmiy qarashlari Markaziy Osiyo xalqlarining shakllanish jarayonlarini turli aholi qatlamlari o‘rtasidagi tarixiy-madaniy aloqalar bilan bog‘liq holda tushuntirish imkonini beradi [4]. Ushbu yondashuv mintaqaning etnomadaniy taraqqiyotini bir-biridan ajralgan, o‘zgarmas etnik birliklar tarixi sifatida emas, balki o‘zaro ta’sir va tarixiy o‘zgarishlar jarayoni sifatida anglashda muhimdir. Siyosiy-falsafiy nuqtayi nazardan, mazkur qarash madaniy xilma-xillikning ijtimoiy asoslarini yoritishga xizmat qilsa-da, uning siyosiy plyuralizm bilan aloqadorligini aniqlash uchun hukmronlik munosabatlari, ijtimoiy guruhlarning huquqiy maqomi va boshqaruv jarayonlaridagi ishtirok shakllarini alohida tahlil qilish zarur. Demak, etnomadaniy xilma-xillik siyosiy manfaatlar va identitetlarning tarixiy shakllanishini tushuntiruvchi omillardan biri bo‘lishi mumkin, biroq uning o‘zi siyosiy institutlarning plyuralistik xususiyatini belgilamaydi.

Markaziy Osiyo intellektual merosining g‘oyaviy asoslarini yoritishda Abu Rayhon Beruniyning ilmiy qarashlari alohida ahamiyatga ega. G.K.Masharipova Beruniy merosining xorijiy tarixshunoslikda o‘rganilishini tahlil qilib, allomaning ilmiy-falsafiy qarashlarini anglashda tarixiy manbalar va ularning talqinlariga e’tibor qaratadi [5]. Beruniyning “Hindiston” asarida boshqa xalqning diniy qarashlari, urf-odatlari va ilmiy tasavvurlarini o‘rganishga intilish, ayniqsa, til va tushunchalar o‘rtasidagi farqlarni hisobga olish zarurati namoyon bo‘ladi. E.Zaxau tomonidan ingliz tiliga tarjima qilingan asarning birinchi jildi 9-betida tilning o‘ziga

xosligi va tushunchalarni boshqa madaniy muhitda anglash bilan bog‘liq qiyinchiliklar ko‘rib chiqiladi [6, 9-10.]. Mazkur jihat o‘zga dunyoqarashni uning tarixiy va madaniy shart-sharoitlari asosida tushunish zaruratini ifodalaydi. Biroq Beruniyning qiyosiy bilishga asoslangan ilmiy yondashuvini zamonaviy siyosiy plyuralizmning to‘liq shakllangan nazariyasi sifatida baholash tarixiy jihatdan o‘rinli emas. Uning qarashlari, avvalo, intellektual muloqot, ilmiy xolislik va madaniy tafovutlarni anglashning g‘oyaviy ahamiyatini yoritadi.

Xorijiy tarixshunoslikda S.Frederik Starrning Markaziy Osiyo ilmiy-intellektual taraqqiyotiga oid qarashlari mintaqaning o‘rta asrlardagi ilmiy markazlari, bilimlar almashinuvi va madaniyatlararo aloqalarining tarixiy ahamiyatini tushuntirishga xizmat qiladi [7]. A.Xolidning asarlarida esa, xususan, sovet va postsovet davrlarida diniy identitet, davlat siyosati va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarning o‘zgaruvchan xususiyatlari yoritiladi [8]. Mazkur olimlarning ilmiy yondashuvlari turli tarixiy davrlarni qamrab olishi bilan birga, madaniy va diniy identitetlarning siyosiy mazmuni muayyan hokimiyat tizimi, davlat siyosati hamda ijtimoiy sharoitlarga bog‘liq holda shakllanishini anglash imkonini beradi. Shu nuqtayi nazardan, Markaziy Osiyodagi tarixiy madaniy xilma-xillikni baholashda intellektual aloqalar rivoji bilan siyosiy institutlarning ochiqligi, manfaatlar vakilligi va siyosiy ishtirok imkoniyatlarini bir-biridan farqlash zarur.

Shunday qilib, mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy qarashlari Markaziy Osiyo tarixiy-madaniy makonida shakllangan xilma-xillikning etnik, diniy, intellektual va siyosiy jihatlari o‘zaro bog‘liq bo‘lsa-da, bir xil mazmunga ega emasligini ko‘rsatadi. Madaniyatlararo muloqot va fikriy xilma-xillik siyosiy tafakkur tarixini anglash uchun muhim intellektual zamin bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Siyosiy plyuralizm esa bunday xilma-xillikning huquqiy tan olinishi, manfaatlarning mustaqil ifodalanishi va siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonida ishtirok etish imkoniyatlari bilan bog‘liq alohida institutsional hodisadir. Ushbu farqni hisobga olish mintaqaning tarixiy merosini zamonaviy siyosiy nazariyalar bilan qiyoslashda ilmiy xolislikni ta’minlaydi.

Markaziy Osiyoning tarixiy-madaniy merosini siyosiy-falsafiy jihatdan anglashda madaniy xilma-xillik, intellektual-kommunikativ muloqot va siyosiy-institutsional plyuralizm tushunchalarini o‘zaro bog‘liq, biroq mazmunan mustaqil tahlil darajalari sifatida farqlash muhim ahamiyatga ega. Madaniy xilma-xillik jamiyatdagi etnik, til, diniy e’tiqod va ijtimoiy qadriyatlarning rang-barangligini ifodalasa, intellektual-kommunikativ muloqot turli dunyoqarashlar o‘rtasidagi fikr almashinuvi, muqobil qarashlarni anglash va asoslangan munozara yuritish madaniyatini qamrab oladi. Siyosiy-institutsional plyuralizm esa ijtimoiy manfaatlarning mustaqil va uyushgan shaklda ifodalanishi, turli siyosiy

pozitsiyalarning qonuniy raqobati, vakillik mexanizmlari hamda siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonida ishtirok etish imkoniyatlari bilan tavsiflanadi. Ushbu farqlash tarixiy madaniy ko‘plikni zamonaviy demokratik boshqaruv tamoyillari bilan bevosita aynanlashtirmasdan, ularning g‘oyaviy va institutsional xususiyatlarini izchil tahlil qilish imkonini beradi.

Tarixiy nuqtayi nazardan, madaniyatlararo aloqalar va ilmiy muloqotning mavjudligi jamiyatda turli qarashlarning uchrashuvi hamda intellektual tajribaning boyishini ko‘rsatadi. Biroq fikriy xilma-xillikning mavjudligi uning siyosiy hokimiyat tizimida mustaqil manfaatlar sifatida e’tirof etilgani yoki qarorlar qabul qilish mexanizmlariga ta’sir ko‘rsatganini anglatmaydi. Masalan, Ipak yo‘li yodgorliklari mintaqadagi madaniy va iqtisodiy aloqalarning moddiy asoslarini yoritadi, Beruniyning ilmiy merosi esa o‘zga dunyoqarashni anglash, qiyosiy bilish va intellektual muloqotning ayrim tarixiy xususiyatlarini namoyon etadi. Mazkur dalillar siyosiy tafakkurning tarixiy-madaniy muhitini tushuntirish uchun muhim bo‘lsa-da, siyosiy institutlarning plyuralistik darajasini baholash uchun hokimiyat vakolatlari, ijtimoiy guruhlarning huquqiy maqomi, manfaatlar vakilligi va boshqaruv amaliyotiga oid mustaqil dalillar talab etiladi.

Siyosiy plyuralizmning g‘oyaviy mohiyati ijtimoiy manfaatlar va dunyoqarashlarning xilma-xilligini tan olish bilangina cheklanmay, ularning siyosiy munosabatlarda erkin ifodalanishi, qonuniy himoyalanishi hamda hokimiyat faoliyatiga ta’sir ko‘rsatish imkoniyatlarini ham nazarda tutadi. Shu jihatdan, R.Dalning siyosiy bahslashuv va ishtirok qamroviga oid nazariy qarashlari [1] madaniy ko‘plik bilan siyosiy plyuralizm o‘rtasidagi farqni aniqlashtirishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Mazkur yondashuvga ko‘ra, jamiyatdagi turli fikr va manfaatlarning mavjudligi siyosiy raqobat va ishtirok uchun zarur huquqiy-institutsional imkoniyatlar bilan bir xil hodisa emas. Binobarin, madaniy xilma-xillik siyosiy plyuralizm bilan muayyan konseptual aloqadorlikka ega bo‘lishi mumkin, ammo ularning o‘zaro munosabati konkret tarixiy va siyosiy sharoitlar doirasida baholanishi lozim.

UNESCOning 2001-yilda qabul qilingan “Madaniy xilma-xillik to‘g‘risidagi umumjahon deklaratsiyasi” 2-moddasida madaniy plyuralizm madaniy jihatdan xilma-xil jamiyatdagi guruhlar va shaxslar o‘rtasidagi uyg‘un munosabatlar hamda ishtirok imkoniyatlarini ta’minlashga qaratilgan siyosat bilan bog‘lanadi [9]. Ushbu yondashuv madaniy tafovutlarni tan olish, ular o‘rtasida muloqot o‘rnatish va ijtimoiy hamjihatlikni ta’minlashning zamonaviy normativ ahamiyatini ifodalaydi. Biroq madaniy plyuralizm bilan siyosiy plyuralizmning mazmuni to‘liq bir xil emas: birinchisi madaniy tafovutlarning e’tirof etilishi va o‘zaro munosabatlariga, ikkinchisi esa siyosiy manfaatlar, raqobat va ishtirokning huquqiy-

institutsional imkoniyatlariga taalluqlidir. Shuningdek, mazkur deklaratsiyada ifodalangan XXI asr tamoyillarini qadimgi yoki o‘rta asr siyosiy tuzumlariga bevosita tatbiq etish tarixiy davrlar o‘rtasidagi siyosiy-huquqiy tafovutlarni e’tibordan chetda qoldirishi mumkin.

Zamonaviy O‘zbekistonning konstitutsiyaviy-huquqiy tizimida siyosiy plyuralizmning normativ asoslari O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlangan. Xususan, Konstitutsiyaning 12-moddasiga ko‘ra, ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlar xilma-xilligi asosida rivojlanadi hamda hech qaysi mafkura davlat mafkurasi sifatida o‘rnatilishi mumkin emas [10]. Mazkur konstitutsiyaviy qoida siyosiy va mafkuraviy xilma-xillikning huquqiy tamoyil sifatida e’tirof etilganini ifodalaydi. Shu bilan birga, konstitutsiyaviy normaning mavjudligi, uning amalga oshirilishini ta’minlovchi institutsional mexanizmlar va siyosiy ishtirokning amaliy ko‘rinishlari o‘zaro farqlanadi. Binobarin, tarixiy madaniy meros va zamonaviy siyosiy plyuralizm o‘rtasidagi aloqadorlikni baholashda g‘oyaviy mushtaraklikni huquqiy-institutsional vorisiylik bilan aynanlashtirmaslik, siyosiy institutlarning amaliy faoliyati haqidagi xulosalarni esa tegishli empirik dalillar bilan asoslash zarur.

Shu tariqa, Markaziy Osiyoning tarixiy-madaniy tajribasi siyosiy plyuralizmning ayrim g‘oyaviy va intellektual jihatlarini qiyosiy anglash imkonini bersa-da, zamonaviy siyosiy plyuralizmning shakllanishi huquqiy kafolatlar, siyosiy raqobat, manfaatlar vakilligi va fuqarolarning siyosiy ishtirokini ta’minlovchi institutlar bilan bog‘liq. Ushbu farqlash mintaqa intellektual merosining siyosiy-falsafiy ahamiyatini tarixiy xolislik asosida baholash hamda madaniy xilma-xillik va siyosiy plyuralizmning o‘zaro munosabatlarini nazariy jihatdan aniq ifodalashga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, Markaziy Osiyoning tarixiy-madaniy merosi turli etnik, diniy va ijtimoiy jamoalar o‘rtasidagi aloqalar, madaniy almashinuv hamda intellektual muloqotning ko‘p asrlik tajribasini aks ettiradi. UNESCO tomonidan e’tirof etilgan moddiy meros obyektlari va mahalliy tarixshunoslik mintaqadagi madaniy xilma-xillikning tarixiy asoslarini yoritadi. Abu Rayhon Beruniyning “Hindiston” asarida til va tushunchaviy tafovutlarga e’tibor qaratilishi esa o‘zga madaniyatni anglashning intellektual ahamiyatini ko‘rsatadi [6, 9-10-b.]. Biroq mazkur dalillar tarixiy jamiyatlarda siyosiy tenglik, manfaatlar vakilligi va boshqaruvda erkin ishtirok etish imkoniyatlari mavjud bo‘lganini bevosita tasdiqlamaydi.

Shu jihatdan, madaniy xilma-xillik, intellektual muloqot va siyosiy-institutsional plyuralizmni o‘zaro aloqador, ammo mazmunan farqlanuvchi hodisalar sifatida baholash zarur. Ularning munosabatini *“tarixiy dalil* -

kommunikativ talqin - institutsional tekshiruv” izchilligi asosida yoritish madaniy merosning g‘oyaviy ahamiyatini aniqlash hamda siyosiy xulosalarni mustaqil tarixiy va huquqiy dalillar bilan asoslash imkonini beradi. Binobarin, Markaziy Osiyoning madaniy-intellektual merosi zamonaviy siyosiy plyuralizmning bevosita tarixiy-institutsional namunasi sifatida emas, balki fikriy xilma-xillik, madaniyatlararo muloqot va muqobil qarashlarni anglashning ayrim tamoyillari bilan qiyosiy aloqadorlikka ega tarixiy tajriba sifatida talqin etilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Dahl R.A. *Polyarchy: Participation and Opposition*. -New Haven: Yale University Press, 1971. -257 p.

2. UNESCO World Heritage Centre. *Silk Roads: the Routes Network of Chang‘an-Tianshan Corridor*. https://whc.unesco.org/en/list/1442/.

3. UNESCO World Heritage Committee. *Decision 45 COM 8B.13: Silk Roads: Zarafshan-Karakum Corridor*. 2023. https://whc.unesco.org/en/decisions/8394.

4. Asqarov A. *O‘zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi*: o‘quv qo‘llanma. -T.: Universitet, 2007. - 340 b.

5. Masharipova G.K. Abu Rayhon Beruniyning tabiiy-ilmiy, ijtimoiy-falsafiy qarashlarining xorijda o‘rganilishi // *ALFRAGANUS* xalqaro ilmiy jurnali. - 2024. - 2-jild, 6-son. -B. 56–63. 10.63294/isja/vol2iss6/144.

6. Al-Biruni. *Alberuni’s India* / translated by E.C.Sachau. -Vol. I. -London: Kegan Paul, Trench, Trübner & Co., 1910. https://www.gutenberg.org/files/79672/79672-h/79672-h.htm.

7. Starr S.F. *Lost Enlightenment: Central Asia’s Golden Age from the Arab Conquest to Tamerlane*. -Princeton: Princeton University Press, 2013. -696 p.

8. Khalid A. *Islam after Communism: Religion and Politics in Central Asia*. - Berkeley: University of California Press, 2014. -272 p.

9. *UNESCO Universal Declaration on Cultural Diversity*. -Paris, 2001. https://www.unesco.org/en/legal-affairs/unesco-universal-declaration-cultural-diversity.

10. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 2023-yil, 30-aprel. https://lex.uz/uz/docs/-6445145.